

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- iyul holatiga 3 594,1 ming kishini tashkil etib, 2024- yil boshidan 33,5 ming kishiga ya'ni 0,9 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 536,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 2 057,4 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2024- yil yanvar-iyun oylarida

- Aholi soni **33,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **43,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **7,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **9,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,5 ming nafarni** tashkil etdi

2024- yilning yanvar-iyun oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 560 633 kishi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)



43,9 *ming bola*

Tug'ilganlar soni



7,4 *ming kishi*

O'lganlar soni



5,7 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar soni



8,8 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 594 055 kishi
(2024- yilning 1- iyul holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2024- yilning 1- iyul holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qashqadaryo viloyati	3 594,1	1 536,7	2 057,4
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	298,1	298,1	-
Shahrisabz sh.	148,4	148,4	-
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	224,4	52,8	171,5
Dehqonobod	161,0	30,7	130,4
Qamashi	295,9	70,2	225,7
Qarshi	275,4	99,7	175,7
Koson	315,2	165,6	149,6
Kitob	284,3	105,8	178,5
Mirishkor	130,6	49,1	81,5
Muborak	94,2	74,9	19,3
Nishon	168,4	100,7	67,7
Kasbi	215,0	83,1	131,9
Ko'kdala	191,1	30,0	161,1
Chiroqchi	270,7	77,7	193,0
Shahrisabz	236,4	57,0	179,4
Yakkabog'	285,0	92,9	192,1

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni
(1- iyul holatiga ming kishi)

	2023- y.	2024- y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da</i>
Qashqadaryo viloyati	3 515,1	3 594,1	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	292,0	298,1	102,1
Shahrisabz sh.	145,7	148,4	101,9
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	219,5	224,4	102,2
Dehqonobod	157,7	161,0	102,1
Qamashi	289,5	295,9	102,2
Qarshi	268,6	275,4	102,5
Koson	308,0	315,2	102,3
Kitob	278,4	284,3	102,1
Mirishkor	127,8	130,6	102,2
Muborak	92,4	94,2	101,9
Nishon	164,3	168,4	102,5
Kasbi	210,3	215,0	102,2
Ko'kdala	185,7	191,1	102,9
Chiroqchi	263,6	270,7	102,7
Shahrisabz	232,4	236,4	101,7
Yakkabog'	279,2	285,0	102,1


Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2023- y.	2024- y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2023- y.	2024- y. ²⁾
Tug'ilganlar	44 445	43 909	-536	25,6	24,7
O'lganlar	8 039	7 415	-624	4,6	4,2
Tabiiy o'sish	36 406	36 494	88	21,0	20,5
Nikohlar	9 966	9 801	-165	5,7	5,5
Ajralishlar	1 818	1 551	-267	1,0	0,9

Tug'ilish darajasi. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 43 909 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (44 445 kishi) nisbatan 536 kishiga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 24,7 promilleni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (25,6 promille) nisbatan 0,9 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-iyun oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Muborak tumanida 22,0 dan 24,5 promillega va G'uzor tumanida 26,7 dan 27,0 promillega ko'payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma'lumot

²⁾ dastlabki ma'lumot


Tug'ilish. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 43,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 24,7 promilleni tashkil etdi hamda 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega kamayganligi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 25,6 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo'yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo'lishi lozim.


Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti

(2024- yilning yanvar-iyun oylarida)




O'lim darajasi. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni 7 415 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (8 039 kishi) nisbatan 624 kishiga yoki 92,2 foizga kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4,6 promille).

**2024- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy o‘lim sabablari
bo‘yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi**



O‘lim soni va koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Qarshi shahrida (4,2 dan 4,9 promillega), Qamashida (3,9 dan 4,3 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 9,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,5 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2024- yilning yanvar-iyun oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2024- yilning yanvar-iyun oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-iyun oylari FHDYO organlarida 9801 ta nikohlar va 1551 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 5,5 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 5,7 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida 1,0 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>

Qashqadaryo viloyati	9 966	9 801	1 818	1 551
-----------------------------	--------------	--------------	--------------	--------------

shaharlar:

Qarshi sh.	871	806	241	210
------------	-----	-----	-----	-----

Shahrisabz sh.	378	373	142	105
----------------	-----	-----	-----	-----

tumanlar:

G'uzor	667	617	73	86
--------	-----	-----	----	----

Dehqonobod	393	408	73	58
------------	-----	-----	----	----

Qamashi	850	761	128	130
---------	-----	-----	-----	-----

Qarshi	779	773	133	117
--------	-----	-----	-----	-----

Koson	932	933	103	100
-------	-----	-----	-----	-----

Kitob	753	769	133	124
-------	-----	-----	-----	-----

Mirishkor	350	356	42	27
-----------	-----	-----	----	----

Muborak	281	264	53	49
---------	-----	-----	----	----

Nishon	476	434	94	67
--------	-----	-----	----	----

Kasbi	623	599	100	68
-------	-----	-----	-----	----

Ko'kdala	427	513	42	39
----------	-----	-----	----	----

Chiroqchi	738	724	123	112
-----------	-----	-----	-----	-----

Shahrisabz	696	719	126	124
------------	-----	-----	-----	-----

Yakkabog'	752	752	212	135
-----------	-----	-----	-----	-----

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5 704 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 776 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2023- yilning yanvar-iyun oylarida	2024- yilning yanvar-iyun oylarida
	Ko'chib kelganlar	4431	5704
	Ko'chib ketganlar	8012	8776
+ -	Migratsiya saldosi	-3581	-3072

2024- yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya qoldig'i minus 3 072 kishiga (2023- yilning shu davrida minus 3 581 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 531), Kitob (minus 433) va G'uzor (minus 350) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-iyun oylarida

Soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

² dastlabki ma'lumot



Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- iyul holatiga 2 98,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 2,5 ming kishiga yoki 0,8 % ga o'sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida	2024- yilning yanvar-iyun oylarida
Tug'ilish	
25,8	22,6

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 3,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 22,6 promilleni tashkil etdi (2023- yilning mos davrida 25,8 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2024- yilning yanvar- iyun oylarida 806 ta nikoh va 210 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,5 promilleni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2023- yilning mos davrida 6,0 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,4 promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan teng. 2023- yilning mos davrida 1,7 promille bo'lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-iyun holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

